INSONIYAT TAFAKKURINING YORQIN MAHSULI BO‘LGAN MAQOM VA UNING USULLARI

Erkin Ro‘zimatov Orzimatovich,
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti
“Maqom xonandaligi” kafedrasi professori, O‘zbekiston xalq hofizi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shashmaqom shakllanishida doyra usullarining roli, “maqom san’atini yoshlarga singdirish, uni tinglay olish qobiliyatini shakllantirishda nimalarga e’tibor qaratish lozim, bugungi kunda yoshlarga maqom san’ati qay darajada o‘rgatilmoqda” kabi savollarga javob nuqtai nazaridan ya’ni, maqom usullarini o‘rganishning metodlari va muhim ahamiyatlari haqida ma’lumotlar bayon etilgan.*

Аннотация: *В этой статье рассматривается роль даира в формировании шахмакома, а также вопросы, такие как "что следует учитывать при внедрении макамного искусства в молодежь, при формировании способности слушать его, и на каком уровне в настоящее время преподается макамное искусство молодежи", с точки зрения ответов на эти вопросы, а именно методы и важность изучения макамных техник.*

Abstract: *This article discusses the role of the daf in the formation of shashmaqom, as well as questions such as "what should be considered when introducing maqom art to young people, in shaping their ability to listen to it, and at what level maqom art is currently being taught to the youth," from the perspective of answering these questions, namely the methods and importance of studying maqom techniques.*

Kalit so’zlar: *maqom, usul, ritm, maqom usullari, saraxbor, talqin, nasr, ufar, talqincha, savt, qashqaracha, soqiynoma, doira.*

Insoniyat tafakkurining yorqin mahsuli bo‘lgan maqom doimo tinglovchilar, muxlislarni hayratga solib kelgan yirik musiqiy qomusdir. Milliy maqomlarimizda xalqimizning qadimiy tarixi, ma'naviy dunyosi, badiiy falsafasi, ruhi mujassam. Shu bois necha asrdirki, maqom bebaho madaniy meros sifatida ardoqlanib kelinmoqda.

Prezidentimizning 2017-yil 17-noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g'risida”gi qarori o‘zbek mumtoz musiqasi tarixida yangi davrni boshlab bergan muhim hujjat bo‘ldi. Unda maqom san'atini yanada rivojlantirish va uni butun dunyo bo‘ylab tan olinishiga imkon yaratish borasida muhim vazifalar belgilab berilgan edi. Jumladan, rahbarimizning ushbu masala yuzasidan amalga oshirilishi kerak bo‘lgan chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan bir necha farmon va qarorlari misol bo‘la oladi. Bu borada soha mas’ullari ya’ni mutaxassis

o‘qituvchilar, ustozlar, yetuk sozanda va xonandalar tomonidan ham kerakli vazifalar belgilab olinishi maqsadga muvofiqdir.

So’zimizni isboti o‘laroq musiqa ta’limi o’qituvchisi sifatida o‘zimizga - maqom san’atini yoshlarga singdirish, uni tinglay olish qobiliyatini shakllantirishda nimalarga e’tibor qaratish lozim? - bugungi kunda yoshlarga maqom san’ati qay darajada o‘rgatilmoqda? - kabi bir necha savollar berib ushbu masalaga jiddiy yondashib amalga oshirilishi kerak bo‘lgan vazifalarni aniq belgilagan holda ish olib borish kerak bo‘ladi. Chunki “maqomlar - bu xalqlar musiqasining klassik uslubidagi namunalaridir”1 deb bejizga aytmagan maqomshunos olim I.Rajabov. Shu mas’uliyatli jarayonni ya’ni yoshlarga maqom san’atini o‘rgatish vazifasini yetuk ustozlar o‘z vaqtida to‘g‘ri baholab nafaqat maqom xonandaligi hamda maqom cholg‘u ijrochiligi kabi mutaxassislik fanlari orqali qolaversa sohaning boshqa fanlari tarkibida ham namunali qo‘llab kelishmoqda. Jumladan, solfedjio darslarida amalga oshirilayotgan va tadbiq etilayotgan o’quv qo‘llanmalardan buni bilish mumkin. O‘zbekiston davlat konservatoriyasi musiqiy san’at fakulteti musiqa nazariyasi kafedrasi professori s.f.n.

Matyakubova Svetlana Kaxxarovnaning bu borada tizimli amalga oshirib kelayotgan ishlari ya’ni “Solfedjio darslarida ritm mashqlari”, “Maqom ritmlari solfedjio darslarida”, 3 qismdan iborat “Maqom solfedjiosi” o‘quv qo‘llanmalari tahsinga sazovor hisoblanadi. Quyida fortepiano ijrochiligida maqom usullarini singdirish metodlari ilmiy ishimizni taqdim etmoqdamiz. Aytish mumkinki mazkur ilmiy ishda yuqorida ta’kidlab o‘tilgan muammolarning yechimi o‘laroq maqom usullarini fortepiano ijrochiligida qay tarzda tadbiq etish va qo‘llashimiz mumkin bo‘lgan metodlarining ilmiy asoslari aks etadi. Ma’lumki O‘zbekistonda maqom asarlari va turkumlari - Buxoro “Shashmaqom”i, “Xorazm maqomlari” va “Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari” turkumlari, shuningdek, uning lokal variantlari - Toshkent irog‘i, Qo‘qon irog‘i, Samarqand ushshog‘i, Farg‘ona “Surnay maqom yo‘llari”, Xorazm “Dutor maqom turkumi”, “Feruz” turkumi va boshqalar mavjud.

Maqom - musulmon Sharqi musiqasida asosiy tushunchalardan biri. Dastlab muayyan balandlikdagi tovushni hosil etish uchun torli cholg‘uning dastasida barmoq bilan bosiladigan joy, parda ma’nosida ishlatilgan.

Keyinchalik Sharq musiqa nazariyasi rivojlanishi jarayonida maqomning mazmun doirasi tobora kengayib, bir-biriga nisbatan bog‘liq boshqa ma’nolarni ham anglata boshladi: lad3 tuzilmasi, lad tizimi; muayyan pardalar zaminida vujudga kelgan kuy-ohanglar; shakl, janr; bir qismli yoki turkumli cholg‘u va ashula yo‘llari; musiqiy uslub va o’ziga xos maqom usullari ya’ni ritmlari kabi ma’nolarni o‘zida mujassam etadi. Lad ma’nosini beradigan maqom so‘zi Sharq musiqa amaliyoti hamda nazariyasida keng qo‘llaniladi.

Misol uchun arabcha makam, forscha parda, o‘zbekcha maqom, ozarbayjoncha mug‘om so‘zlari bilan yuritiladi. Bundan kelib chiqadiki maqomning ma’nosi ladning

ma’nosi bilan mutanosib ekanligi nuqtai nazardan quyidagi ma’nolarni anglatadi: - musiqiy-estetik tushuncha sifatida - pardalarning o‘zaro mutanosibligi, turli balandlikdagi musiqiy tovushlarning uyg‘unligi; -musiqa nazariyasining asosiy tushunchalaridan biri, musiqiy pog‘onalarning bosh parda ya’ni asosiy pardalar qo‘shilmasi. Maqomot tizimidagi muhim omillardan yana biri - usuldir. Shuning uchun usul va umuman ritm4 masalasi musiqa risolalarida alohida o‘rin egallab kelgan edi. Abu Nasr Forobiy naqra (urish, urg‘u, aksent) kuyni tashkil qilgan tovush (nag‘ma)larning boshlanish nuqtasidir; ularning oxiri - uzulish nuqtasi ham naqradir (ritmning eng kichik birligi), - deb ta’kidlaydi.

Qolaversa ritm haqida dunyo mutaffikr olimlaridan Aflotun “davlatning qudrati unda qanday musiqa, qaysi lad va qay ritmda yangrayotganligigiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq”, - degan6. Pifagor kuy va ritm inson qalbiga muayyan ta’sir ko‘rsatishini ham aniqlagan7. Bu borada R.Qodirov “musiqa psixologiyasi” kitobida o‘zining taklif va mulohazalarida shunday deb yozadi: “mehnat jarayonida musiqadan foydalanish ish kuni davomida asabiy-ruhiy holatlarning xususiyatlari bilan bog‘liq o‘z qonuniyatlariga ega. Bunda mehnat jarayoni uchun kerakli ritmni o‘rnatish, ish samaradorligini oshirish, ortib boradigan charchoqni chiqarish kabi ishlab chiqarish muammolarini hal etishga ko‘maklashuvchi musiqani tanlash katta ahamiyatga ega”8. Ritm ma’nosini anglatadigan maqomning ajralmas tarkibiy qismi hisoblangan usul quyidagi ta’rif bilan izohlanadi: -musiqaning asosiy elementlaridan biri bo‘lib, musiqa tovushlarining vaqt birligi ichida joylashuv qonuniyatini belgilab beradi. Shuning uchun ham shashmaqom shakllanishida doyra usullarining roli muhim ahamiyat kasb etadi. Usul kuyning o‘lchov-ritmik xususiyatlari asosida tug‘ilgan bo‘lsa-da, o‘z navbatida maqomlardagi ayrim qismlarning yaratilishida yetakchi omillardan bo‘lgan. Masalan, har bir maqomda birinchi qism sho‘balaridagi Talqin uning ma’lum Nasr yo‘li hamda Ufari bir-biridan asosan doyra usulining turlicha bo‘lishi va shuning natijasida kuyda tug‘ilgan o‘lchov-ritmik o‘zgarishlar bilan farqlanadi. Doyra usullari qo‘llanishining o‘zida ham ma’lum tizim mavjud. Jumladan, maqomlar cholg‘u bo‘limining birinchi qismlari - Tasnif va Tarje’lardagi doyra usuli ma’lum darajada sodda bo‘lsa. Keyingi qismlarida - Gardunda murakkabroq, Muxammas va Saqillarda esa haddan tashqari murakkablashadi.

Agar Tasnifda doyra usuli to‘rt taktni tashkil etsa, Muxammasda 16, Saqilda esa 24 taktni tashkil etadi. Musiqachi shaxsini tarbiyalashda ritmning ahamiyati nuqtai nazardan quyidagi fikrlarni ta’kidlab o‘tishimiz joiz. Aytish mumkinki musiqachi shaxsini tarbiyalashda ham ritm ya’ni usullarning o‘rni benihoyadir. Shuning uchun ham o‘quvchida ritm tuyg‘usini shakllantirish va rivojlantirish musiqa pedagogikasining eng zarur va muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur vazifani ya’ni ritmni o‘quvchiga singdirish esa psixologik jarayondir. Shuni ham aytib o‘tishimiz joizki ayniqsa fortepiano o‘qitish uslubiyotida ko‘p

uchraydigan kamchiliklardan yana biri shuki, ba’zi o‘qituvchilar o‘quvchining ijrosida ovoz sifatiga, asarning mazmunini qay tarzda bayon etilishi yoxud musiqiy nutqiga va asarning mohiyatiga emas, balki asarni qay tarzda bo‘lsada yod olishiga hamda qo‘lning holatiga ko‘proq e’tibor beradilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent
2. Аҳмедов Р. Миллий мусиқий ижрочилик санъатига бир назар, 2020.
3. Y.Rajabiy. O’zbek maqomlari (shashmaqom). T.; Yunesko. 2007 yil.
4. I.Rajabov. Maqomlar masalasiga doir. T.: O’zadabiynashr. 1963 yil.